

Kimyo tarmog'i eksport geografiasini kengaytirmoqda - infografika

// 06.08.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-tarmog-i-eksport-geografiasini-kengaytirmoqda-infogra>

2025-yilning yanvar-iyun oylari davomida kimyo korxonalaridan tomonidan 9,4 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Bu sanoatdagi yuqori dinamik o'sish mamlakatning agrosanoat majmuasi ehtiyojlarini qondirish bilan birga, eksport imkoniyatlarini ham yanada kengaytirmoqda.

KIMYO TARMOG'I EKSPORT KO'RSATKICHLARI

2025-yilning yanvar-iyun oylari bo'yicha



Xususan, yilning birinchi yarim yilligida 307,4 mln dollarlik mahsulot eksport qilindi. Bu rejaga nisbatan 111,3 foizni, o'sish sur'ati esa 135,6 foizni tashkil etdi. Mahsulotlar 55 ta davlatga eksport qilindi, shundan 167,6 mln dollarlik mineral o'g'itlar, 139,7 mln dollarlik kimyoviy mahsulotlar eng yirik ulushga ega bo'ldi.

Ta'kidlash joiz, eksport geografiasini ham kengayib bormoqda. An'anaviy qo'shni davlatlar bilan bir qatorda

Yevropa mamlakatlariga 63,2 million dollarlik mahsulot eksport qilingan bo'lsa, yangi bozor sifatida

- Janubiy Amerika (Braziliya, Peru, Chili)
- Janubi-Sharqiy Osiyo
- Turkiya
- Hindiston
- Eron

va boshqa mamlakatlar bilan ham hamkorlik kengayib bormoqda. Bu esa tarmoqning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini yana bir bor tasdiqlaydi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati